



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

SHAXSIY HAYOT DAXSLIZLIGI HUQUQINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (TEZIS)

Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti”

yo'nalishi Magistratura talabasi

Telefon:+99894 338 69 99 jasurbekkbozorovqash@gmail.com

Anotatsiya

Mamlakatlarda demokratya rivojlanib, borar ekan har bir davlat o'z fuqarolarining shaxsiy daxlsizlik huquqlarini himoya qilishga va ularning daxlsiz huquqlarini imkon qadar himoya qilishga harakat qiladi. Ushbu tezisda mamlakatmizda shaxsiy daxlsizlik huquqlarini yanada takomillashtirish, chet el tajribalarini amaliyotga tadbiq etgan holda huquq tizimini shakllantirish va tizimli mexanizmlarni joriy etish choralari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq normalari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Future of Secure Remote Work Report, voyaga yetmagan, World Justice Project (WJP), Rule of Law Indeks, jinsiy erkinlik.

Shaxsiy hayot daxslizligi paydo bo'lgandan beri ko'pgina davlatlar uni o'z Konstitutsiyalari va Konstitutsiyaviy qonunlari bilan mustahkamlab quydi va bugungi kunda dunyoning barcha rivojlangan demokratik davlatlari va kelajakda buyuk fuqarolik jamiyatini qurishni o'z olida maqsad qilib qo'ygan har bir davlat ushbu daxlsiz huquqlarning himoya qilinishini ta'minlab kelmoqdalar va ushbu huquqlarni o'z qonunlarining asosiga aylantirganlar desak, ham adashmagan bo'lamiz. Biz shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini ta'minlash uchun rivojlangan davlatlarda o'rnatilagan tartibni joriy qilishimiz to'g'ri hisoblanadimi?

Mazkur masalaga quyida xalqaro inson huquqlari normalari va rivojlangan davlatlarda shaxsiy daxlsizlikni ta'minlovchi normalarini o'rganib tadqiq qilib boramiz.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida keltirib o'tilgan normalar xalqaro maydonda qo'llanilayotgan inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash sohasida dasturilamal hisoblanadi.



Shaxsiy daxlsizlik huquqlari bilan teng ma'nodagi jumlalardan biri bo'lgan inson huquqlari tushunchasi *1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasida* keng yoritilgan va inson huquqlariga qanday huquqlar kirishi hamda qanday ta'minlanishi kerakligi ham keltirib o'tilgan. Shuning uchun ham ushbu qonun insoniyat hayotini yaxshilagan va ularga inson sifatida huquqlar bergen Deklaratsiya hisoblanadi.

Bugungi axborot makonida texnika va texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir paytda, ishchi-xizmatchilar va boshqa katta ko'pchilik shaxslarning internet tarmoqlaridan hamda kompiyuter jihozlaridan foydalanishi kiberxavfsizlik soha vakillarini yanada katta tashvishga soladi. **Future of Secure Remote Work Report** hisobotida barcha respondentlarning 85 foizi odamlar shaxsiy ma'lumotlarning kompiyuter jihozlarida va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda saqlanishi kiberxavfsizlik nuqta'i nazaridan juda muhim yoki bugungi kunda dolzarb masala ekanligini ta'kidlaydilar.

Bundan tashqari, chet el qonunchiligini tahlil qilish davomida bir ator yangicha yondashuvlarga duch keldik va ushbu o'rinda misol uchun Fransiya davlatidan milliy qonunchiligidan rivojlantirish uchun quyidagi normalarni o'rganib chiqib tegishlichcha moslashtirgan holda milliy qonunchiligidan tadbiq etishimiz mumkin.

- ❖ Shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlashning doirasini kengaytrish (Fransiyada nafaqat Fransiya, balki butun Yevropa Hamjamiyatida amal qiladi);
- ❖ Yosh bolalarning (voyaga yetmagan) daxlsiz huquqlariga ham oydinlik kiritib, qat'i qoidalar belgilash;
- ❖ Shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning mustasno holatlarini (davlat va jamiyat hayoti uchun xavf tug'diradigan omillardan boshqa) holatlarning ham aniq chegarasini belgilash.

Ushbu tajribalarni keng joriy qilish qaysidir ma'noda fuqarolarning huquqlarini yanada yaxshiroq ko'rinishda himoyalaydi deb o'ylayman. Chunki xalqaro **World Justice Project (WJP)** ning **Rule of Law Indeksiga** ko'ra Fransiyaning o'rni 2000-yillarda 1 ballni ko'rsatgan bo'lsa (*2 ballik shkalada*), yuqoridagi islohotlar natijasida 2013-yilda 1,98 ballni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin va 2017-yilda 1,92 ballni tashkil etgan.

Bundan tashqari Italiya davlatidan ham bir qator normalarni ichki qonunchiligidan joriy etishimiz mumkin.



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

- ❖ Jinsiy hayot haqidagi ma'lumotlarning shaxs ruxsatisiz qayta ishlashga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ OAV xodimlari uchun jinsiy erkinlik bilan bog'liq ma'lumotlarni tarqatishni qonun yo'li bilan taqiqlash, u qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar;
- ❖ OAVlarda qamoqdag'i shaxslar va hibsga olingan shaxslarning tasvirlari hamda fotosuratlarini olish va tarqatish kabi bir qator normalarni keltirishimiz mumkin.

Ushbu isohotlar natijasida 90-yillarda Mafiya keng avj olgan Italiya 2000-yillarga kelib inson huquqlarining ta'minlanishida sezilarli o'zgarishlar qila oldi. **World Justice Project (WJP)** ning **Rule of Law Indeksiga** ko'ra Italia 2000-yilda inson huquqlarining ta'minlanishiga ko'ra 0,7 balni (*2 ballik tizimda*) egallagan bo'lsa, 2010-yilda 1,73 balni va 2020-yil yakunlariga ko'ra 1,81 ballni egalladi.

Ushbu islohotlarni milliy qonunchiligidan tadbiq qilish fuqarolarning huquqlarini ta'minlashda asosiy o'rin egallaydi degan umiddaman. Xususan, O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlash borasida **World Justice Project (WJP)** ning **Rule of Law Indeksiga** ko'ra 2000-yilda 0,2 ballni (*1 ballik shkalada*) va 2016-yilda esa, 0,23 ballni va 2019-yilda esa, 0,59 ballni va 2020-yilda 0,48 ballni tashkil qilgan.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

I. Rahbariy adabiyotlar:

- 1.1.Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi" T.5. –T.: "O'zbekiston", 1997.
- 1.2.Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi" T.: HMIU, 2017. – 48.

II. Normativ huquqiy hujjatlar:

- 2.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- 2.2.Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 12.12.2002 yildagi 439-II-son

III. Maxsus adabiyotlar:

- 3.1.Fayziyev, I. S. (2021). Yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini ta'minlashning milliy va xalqaro-huquqiy asoslari. Scientific progress, 2(5), 259-266.

IV. Xorijiy adabiyotlar:

- 4.1.Гасанов К.К., Несмелов П.В. О праве на неприкосновенность личной жизни // Вестник Московского университета МВД России. 2006. № 1. С. 15-16.
- 4.2.Петросян М.С. О праве на неприкосновенность частной жизни // Карта. 2006. № 35.

V. Xorijiy davlatlar normativ-huquqiy hujjatlari:

- 5.1.<https://www.lw.com/thoughtLeadership/data-protection-in-france-overview>
- 5.2. <http://www.legislationline.org/documents/id/6744>
- 5.3.https://www.constituteproject.org/constitution/Italy_2012.pdf?lang=en

VI. Elektron hujjatlar:

- 6.1. www.lex.uz.
- 6.2. www.onlinezakon.ru.
- 6.3.www.norma.uz.